

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA SHAXS ERKINLIGI ABDULLA QODIRIYNING "O'TGAN KUNLAR" ROMANI TALQINIDA

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i01.006>

Dilnoza Olimjanovna Dadaboeva

dadaboevad86@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotshunosligida shaxs erkinligi masalasi Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani misolida tahlil qilinadi. Asarda XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhit, an'anaviy qarashlar va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi ziddiyatlar badiiy talqin orqali ochib beriladi. Tadqiqotda romandagi bosh qahramonlar taqdiri orqali shaxs erkinligining ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning realizmga asoslangan badiiy mahorati, milliy tafakkur va individual erkinlik muammosini ifodalashdagi o'rni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan asoslanadi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyotshunosligi, shaxs erkinligi, Abdulla Qodiriy, "O'tgan kunlar", badiiy talqin, realizm, ijtimoiy ziddiyat, milliy tafakkur

PERSONAL FREEDOM IN UZBEK LITERARY CRITICISM: AN INTERPRETATION OF ABDULLA QODIRIY'S NOVEL "BYGONE DAYS"

Dilnoza Olimjanovna Dadaboeva

dadaboevad86@gmail.com

Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature

Abstract: This article analyzes the issue of personal freedom in Uzbek literary criticism using the example of Abdulla Qodiriy's novel "Bygone Days". The work reveals the socio-political environment of the late 19th and early 20th centuries, the contradictions between traditional views and personal freedom through artistic interpretation. The study sheds light on the social, moral and spiritual aspects of personal freedom through the fate of the main characters in the novel. Also, Abdulla Qodiriy's artistic skill based on realism, his role in expressing the problem of national thought and individual freedom is substantiated from the point of view of literary criticism.

Keywords: Uzbek literary criticism, personal freedom, Abdulla Qodiriy, "Bygone Days", artistic interpretation, realism, social conflict, national thought

Adabiyotshunosligimizda taniqli olim, tadqiqotchi, uzoq yillar buyuk xizmat qilgan iste'dod sohibi Matyoqub Qo'shjonov o'zbek romanchiligining asoschisi - Abdulla Qodiriy ijodining boy merosini o'rgangan va buyuk adibimiz ijodiga bag'ishlab bir necha kitoblarni yozgan. Tadqiqotchimiz Qodiriy haqida "Qodiriy - erksizlik qurboni", "Ozbekning o'zligi" kabi muhim ma'lumotlarga ega bo'lgan, chuqur tahlillarga boy kitoblari bilan o'zbek adabiyotshunosligiga katta hissa qo'shgan [1]. Qo'shjonovning "O'zbekning o'zligi" kitobi muallif ta'biri bilan aytganda sof o'zbek hayoti, o'zbek ruhi va uning ma'naviyati haqida o'z ifodasini topgan. Kuchli adabiyotshunos Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanini "Ozbekning o'zligi" kitobida tahlilga tortgan va asardagi xalq ozodligi jaholat tuzumi ostida qolib ketganligini, jamiyatning turg'un holatini asarda keltirilgan parchalar bilan batafsil tadqiq qiladi. Romanda yurt taqdiri haqida gap borar ekan Otabek amaldorlar va hokimlar haqida o'z fikrini bayon qiladi, "...Modomiki, o'z g'arazi yo'lida istibdod orqali el ustiga hukmron bo'lguvchilar yo'qotilmas ekanlar, bizga najot yo'qdir, magar shunday g'arazchilarni ular kim bo'lsalar ham ish boshidan quvlash va ular o'rniga yaxshi va xolis odamlarni o'tqazish najotimizning yo'lidir!" Bu o'rinda Otabek o'z davrining ijtimoiy-siyosiy manzarasini fosh etadi. XIX asr oxiri - XX asr boshidagi Turkiston jamiyati feodal zulm, mustamlakachilik va jaholatdan aziyat chekayotgan edi. Shu sharoitda Otabekning bu so'zlari shaxs va xalq ozodligini zulmga qarshi ongli kurash orqali tiklash zarurligini ifodalaydi. "G'arazchilar" deganda Otabek - shaxsiy manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yuvchi, istibdod orqali boshqalarni ezuvchi shaxslarni nazarda tutadi. Demak, bu fikrda yozuvchi shaxs erkinligining asosiy dushmani - zo'ravonlik va g'araz ekanini ko'rsatadi. Otabek erkinlikni shaxsiy xohish emas, balki jamiyatning adolatli tuzilishi bilan bog'liq ijtimoiy hodisa sifatida anglaydi. U "yaxshi va xolis odamlar ish boshiga kelsin" deya, erkinlikning sharti - halollik, xolislik va mas'uliyat ekanini uqtiradi. Demak, shaxs erkinligi - adolatli ijtimoiy tizimda mavjud bo'lishi mumkin. Otabek "istibdod orqali el ustiga hukmron bo'luvchilar" degan jumla orqali zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat shaxs erkinligini yo'qotadi degan g'oyani ilgari suradi. Unga ko'ra, odamning fikri, ishi va hayoti ustidan tazyiq o'tkazilsa, bu xalqni ham, shaxsni ham qulga aylantiradi. Bosh qahramonning "ularni quvlash va o'rniga xolis odamlarni o'tkazish" haqidagi fikri islohot, yangilanish va fikr erkinligiga asoslangan ijtimoiy o'zgarish zarurligini anglatadi. Bu o'z davrida shaxsning faolligi, ongli qaror qabul qilish huquqi uchun kurash ramzidir. Qodiriy bu fikrni Otabekning og'zidan aytish orqali real ijtimoiy haqiqatni badiiy qahramon shuuriga singdiradi. Otabek - nafaqat romantik sevuvchi, balki fikr va vijdon erkinligini himoya qiluvchi ziyoli obrazidir. Shu bois bu so'zlar yozuvchining o'z davridagi xalqni uyg'otish, millatni o'z taqdirini o'zi belgilashga chaqirish istagini aks ettiradi.

Qo'shjonov asarni tahlil qilishda davom etarkan, Otabekning sog'lom tushunchalarini yetkazishda davom etadi. Bosh qahramon har jihatdan mukammal bo'lib, yaxshi madrasalarda tahsil olgan, savdo ishi bilan ko'p shaharlarga borib ularning hayoti va boshqaruvi bilan xabardor bo'lib, o'z xalqi hayoti bilan solishtirib ma'lum bir xulosalarga, tushunchalarga ega bo'lgan. Qolaversa, ziyoli, xalq g'amini yeydigan otaning ta'siriga ham egadir."...*Shamayga bormasimdan ilgari o'z hukumatdorlig'imizni ko'rib: boshqalar ham shundaydir, deb o'ylardim, lekin Shamay maning bu fikrimni ost-ust qilib, o'zimni ham butunlay boshqa kishi yasadi. Men o'risning idora ishlarini ko'rib, o'z idoramizni butunlay o'yinchoq bo'lganligini iqror etishga majbur bo'ldim. Bizning idoramiz bukungi tartibsizligi bilan keta bersa, holimizning nima bo'lishig'a aqlim yetmay qoldi. Shamayda ekanman, qanotim bo'lsa, vatanimg'a uchsam, to'ppa- to'g'ri xon o'rdasiga tushsamda, o'rusning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig' yozib, o'rusning idora-tartibini dasturilamal etishga buyursa, men ham bir oy ichida o'rusniki bilan bir qatorda ko'rsam... Ammo o'z elimga qaytib ko'rdimki, Shamayda o'ylaganlarim, oshiqqanlarim shirin bir hayol emish! Bu yerda so'zimni eshituvchi birov ham bo'lmadi, bo'lsalar ham: "Sening arzing bu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?!"-deb meni mayus qildilar. Ilgariroq men ularning gapiga bovar qilmay yursam ham so'ngidan to'g'ri so'z aytganlarini bildim".*

Ushbu parcha Otabekning Shamayga safaridan ichki inqilobini ifodalaydi. U ilgari o'z yurtidagi boshqaruv tartibini "tabiiy" va "haqiqat" deb bilgan bo'lsa, Shamayda rus boshqaruv tizimini ko'rib, o'z idorasining tartibsizligi, adolatsizligi va sustligini teran anglab yetadi.

Shamay safari unga o'zini anglash orqali erkinlikka chiqish, ya'ni ma'naviy ozodlanish holatiga turtki beradi. "Men o'risning idora ishlarini ko'rib, o'z idoramizni butunlay o'yinchoq bo'lganligini iqror etishga majbur bo'ldim"

Bu jumla Otabekning fikr erkinligi sari qadam qo'yganini ko'rsatadi. U endi atrofdagi tartibsizlikni "taqdir" emas, balki isloh etilishi kerak bo'lgan tizim deb biladi. Qodiriy Otabek timsolida shaxs erkinligini ma'rifat va tafakkur orqali erishiladigan holat sifatida talqin etadi.

Otabek Shamay tajribasidan so'ng dunyoni kengroq ko'radi, mustamlaka xalqning holatini anglaydi, o'z jamiyatidagi idora va ijtimoiy adolatsizlikni tanqid qiladi. Bu holat erkin tafakkurning boshlanishiga ishora beradi. Chunki inson erkinligi, avvalo, fikrning ozod bo'lishidan boshlanadi.

"Men o'zimni ham butunlay boshqa kishi yasadi" - bu Otabekning o'zini anglashidir.

Demak, fikrni o'zgartirish - shaxsni o'zgartirish degan jadidona falsafa bu yerda yaqqol namoyon bo'ladi. "Bu yerda so'zimni eshituvchi birov ham bo'lmadi..."

Bu holat shaxs erkinligining ijtimoiy to'siqlarga duch kelishini ko'rsatadi. Qodiriy bu vaziyat orqali shunday savolni qo'yadi:

- erkin fikrli inson adolatsiz jamiyatda yashay oladimi? Bu ziddiyat - jadid adabiyotining asosiy dramatik o'qidir. Otabek jadidlik ruhining badiiy timsoli sifatida gavdalanadi. Otabek obrazida Qodiriy jadidlar idealini islohotchi, millatini sevuvchi, ilm va adolat tarafdori, ammo jamiyatining sayozligi tufayli tushkunlikka tushgan ziyoli sifatida quradi. Shaxs erkinligi asarda nafaqat individual qadriyat, balki millatni uyg'otuvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Otabekning *"qanotim bo'lsa, vatanimg'a uchsam..."* degan orzusi - fikriy ozodlikning ramziy ifodasidir, ammo "shirin hayol"ga aylangani - xalq erkinligining hali amalga oshmaganini anglatadi. "O'tgan kunlar"dagi mazkur parcha shaxs erkinligining fikr, ong va islohga intilish shaklida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Qodiriy shaxs erkinligi holatini quyidagi bosqichlarda ochib bergan. Anglash (idrokiy ozodlik) - Otabekning Shamayda o'zini va jamiyatini tanib yetishi. Isloh istagi (axloqiy ozodlik) - o'z yurti uchun foydali bo'lish istagi, to'qnashuv (ijtimoiy to'siq) - erkin fikrni qabul qilmaydigan muhit bilan ziddiyatning vujudga kelishi, tushkunlik (ruhiy sinov) - erkin shaxsning jamiyatdan begonalashuviga olib kelishi kabi hodisalarda yaqqol namoyon bo'lgan. Demak, Otabek timsolida shaxs erkinligi - anglashdan boshlanib, jamiyat islohotiga intilishgacha davom etadigan jarayon bo'lib, asarning eng chuqur ma'naviy qatlami ekanligini ko'rsatib beradi.

Matyoqub Qo'shjonovning ta'kidlashicha, romanning g'oyaviy va badiiy jihatdan o'ziga xosligi shundaki, Abdulla Qodiriy zulmat va jaholat o'zining "po'lat" changali bilan butun jamiyatni, hatto imtiyozli sinf vakillarini ham bo'g'ib tashlaganini ko'rsatdi [2]. Ularning sal-pal ilg'or fikr yuritadiganlarini esa barcha insoniy haq-huquqlardan mahrum qilib, og'ir fojialarga duchor etib qo'yganini tasvirladi. Romanni o'qib shunday xulosaga kelasizki, modomiki imtiyozli tabaqa vakillariga hayot shu darajada beshavqat ekan, oddiy mehnatkash xalq erk, haq-huquqlar xususida o'ylashi ham ortiqcha. Mana romandan kelib chiqadigan muhim sotsiyal ma'no! "O'tgan kunlar"da boshqa bir muhim g'oyaviy yo'nalish bor. Abdulla Qodiriy ba'zi bir yuqori tabaqa vakillarining ham asrlar osha turg'unlashib qolgan bor tartib va tuzumga shubha qila boshlaganini, dimiqqan havoning tozalanishi tarafdori bo'lganliklarini, buning uchun boshqa yo'l -yo'riqlar izlab qolganini ko'rsatadi. Ular hayotning shu shaklda yana davom qila olmasligini, jamiyat boshi berk ko'chaga kirib qolganini tushunganliklarini aks ettiradi. Atrofidagi xalqlar hayotiga, ulardagi ro'y berayotgan o'zgarishlarga razm sola boshlaganini, ertami-kech qandaydir burilishlar bo'lishi muqarrar ekanini sezayotganliklarini ifodaga oladi. Bu holatni Otabekning Shamayga qilgan savdo tashrif taassurotlarida o'zi tomonidan tan olinganligi ko'rib chiqdik.

Romanda bosh qahramon bir necha marta o'lim va tuhmat bilan yuzlashadi, lekin u har safar bunday uydirmali tugunlar oldida bosh egmaydi, balki haqiqat g'alaba qozonishiga ishonch bildirib mag'rurlarcha tik boqadi. O'lim jazosi Otabekning hech

qanday qoʻrquv va vahima iskanjasiga sololmaydi, lekin yana bir sinov bor ediki, darhol bu qaddi baland insonni boshini egishga, hisoblashishga majbur qilgan mushkul ish -ota -ona orzusi edi. Abdulla Qodiriy tarixiy davrdagi jaholat tuzumini, zamon nafasini tasvirlayotgan bir paytda bejizga "Ota-ona orzusi" urf-odatini keltirmadi. Oʻsha zamon ruhiga mutanosib va hamohang boʻlgan anʼanalar xalqning erkin nafas olishiga toʻsiq boʻlgan navbatdagi qarshilik edi. Kuchli adabiyotshunos romanning bu qismiga alohida urgʻu beradi. "Qoloq jamiyat faqat zulmi bilan farqlanmaydi. Zulmga muvofiq urf-odatlar yaratadi, kishilar psixologiyasida turgʻunlashib qolgan belgilarni mustahkamlaydi. Bu urf-odatlar, turgʻun psixologik belgilar esa jamiyat oʻtkazayotgan zulmni oqlaydi, ular orqali xalq boshiga tushadigan fojiaiy holatlar yana ham dahshatliroq, yana uqubatliroq maʼno kasb etadi. Abdulla Qodiriy "Oʻtkan kunlar" da masalaning bu tomonini ham yirik planda koʻrsata oldi. Shu xildagi jamiyat yaratgan urf-odatlardan biri ota-ona orzusi edi. Yoshlar topgan baxt, muhabbat, ota-ona tomonidan doim hisobga olinabermas edi. Ular oʻgʻil- qizlarining baxtini oʻzlaricha tushunar edilar. Yoshlarning oʻz ixtiyorlari bilan emas, balki ota-ona ixtiyori bilan oila qurish, xaloyiq yigʻib, elga osh tortib oʻgʻil uylantiribdi, qiz chiqaribdi, "katta toʻy beribdi", "toʻkin-sochin boʻlibdi" degan gapning el orasida uzoq vaqtlar aylanib yurishini hisobga olar edilar. Aksariyat paytlarda "yegan oshni qaytarish" deb dabdabalar bilan oʻz nomini ulugʻlash kabi aqidalarga boʻysundirililar edi. Roman qahramonlari Otabek va Kumush muhabbatlari mana shu chirkin orzu-havas qurboni boʻladi. Biz romanni oʻqir ekanmiz, ikki yoshning sof muhabbatini nobud qilgan bu urf-odatlarga, ularni yaratgan, uni quvvatlagan muhitga nafratlar oʻqiymiz. Ming afsuslar boʻlsinki, jamiyat taraqqiyoti uchun zararli boʻlgan bu xildagi urf-odatlar bugun oz emas. Romanni oʻqib shu xildagi urf-odatlarning koʻrinishlari mohiyatiga toʻlaroq tushungandek boʻlamiz va oʻzimizni kurashga tayyorlaymiz".

Abdulla Qodiriyning "Oʻtkan kunlar" romani jamiyatdagi urf-odatlar, ijtimoiy ong va shaxs erkinligi oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadi. Unda yozuvchi qoloq jamiyatning zulmkorligi faqat tashqi siyosiy bosimda emas, balki odamlar tafakkurida ildiz otgan turgʻun anʼanalar orqali davom etishini koʻrsatadi. Otabek va Kumush fojiasi esa insoniy muhabbatning ijtimoiy tazyiqqa qarshi kurashi sifatida talqin etiladi. Qodiriy bu asar orqali maʼnaviy uygʻonish, erkin fikrlash va jamiyatni yangilash zaruriyati gʻoyasini ilgari suradi. Roman nafaqat bir davr manzarasini aks ettiradi, balki bugungi kun uchun ham dolzarb boʻlgan ijtimoiy va axloqiy saboq beradi: inson erkinligi va baxti - jamiyatni oʻzgartirishning asosiy sharti ekanini anglatadi [3].

Qoʻshjonov oʻz tahlilini yakunlar ekan "Oʻtkan kunlar" romani xususida yuqorida bayon qilingan fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Oʻtkan kunlar" da ikkita muhim holar bor:

Biri asarning bosh qahramonlaridagi chuqur va keng tasvirlangan insoniy muhabbat va xalq g'amini yeyish hissining tasviri. Ikkinchi holat shundan iboratki, romanda tasvirlanayotgan davr ayovsiz tanqid qilinadi, fosh etiladi. O'sha davrga nisbatan davr go'zallik egalari bo'lgan Otabek, Kumush ijtimoiy hayot va jaholat o'tida halok bo'ladilar. Bu hol bizni nihoyatda achintiradi. O'sha davrda ularga baxt muyassar bo'lmadi. Zulmat, qora kuch ular qo'ldan eng oxirgi ovunchog'i-muhabbatini tortib oldi. Bu fojiani o'qir ekanmiz, o'sha mudhish davrga la'natlar o'qiymiz va shu bugungi mustaqilligimizdan cheksiz mamnun bo'lamiz".

Darhaqiqat, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan olingan ushbu parcha jamiyatdagi urf-odatlar, ijtimoiy ong va shaxs erkinligi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadi [4]. Unda yozuvchi qoloq jamiyatning zulmkorligi faqat tashqi siyosiy bosimda emas, balki odamlar tafakkurida ildiz otgan turg'un an'analar orqali davom etishini ko'rsatadi [5]. Otabek va Kumush fojiasi esa insoniy muhabbatning ijtimoiy tazyiqqa qarshi kurashi sifatida talqin etiladi. Qodiriy bu [6] asar orqali ma'naviy uyg'onish, erkin fikrlash va jamiyatni yangilash zaruriyati g'oyasini ilgari suradi. Natijada, parcha nafaqat bir davr manzarasini aks ettiradi, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan ijtimoiy va axloqiy saboq beradi: inson erkinligi va baxti - jamiyatni o'zgartirishning asosiy sharti ekanini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'shjonov Matyoqub "O'zbekning o'zligi"-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti, 1994. 136 b.
2. Matyoqub Qo'shjonov. Hayot va mahorat. T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.
3. Qo'shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. T.: Fan, 1966.
4. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. T.: Fan, 1977.
5. Normatov U., Qodiriy bog'i, T., 1995;
6. Normatov U. "O'tgan kunlar" hayrati, T., 1996.